

NEFT-GAZ TARMOG‘IDA SAMARADORLIKNI OSHIRISH BO‘YICHA VAZIFALAR BELGILANDI

Prezident Shavkat Mirziyoyevga 3-avgust kuni “O‘zbekneftgaz” aksiyadorlik jamiyatining joriy yil birinchi yarmidagi faoliyati va yil yakuniga qadar ustuvor vazifalari yuzasidan hisobot berildi.

Joriy yilning birinchi yarmida jamiyat tomonidan 11,5 milliard kub metr tabiiy gaz qazib chiqarildi. Ayni paytda neft, dizel yonilg‘isi, aviakerosin va suyultirilgan gaz ishlab chiqarish hajmi prognoz ko‘rsatkichlaridan yuqori bo‘ldi.

Yil yakuniga qadar 1 million 100 ming tonna avtobenzin, 983 ming tonna dizel yonilg‘isi, 310 ming tonna aviakerosin, 606 ming tonna suyultirilgan gaz va qariyb 1 million 180 ming tonna sintetik mahsulot ishlab chiqarish ko‘zda tutilgan.

Dunyodagi geosiyosiy vaziyat keskinlashishi natijasida Markaziy Osiyo yo‘nalishida aviaqatnovlar soni ortib bormoqda. Jumladan, O‘zbekistonga amalga oshirilayotgan reyslar soni 2025-yilga nisbatan ko‘paygan. Joriy yil iyul-dekabr oylarida aviakerosinga bo‘lgan talab 375 ming tonnani tashkil etishi, ya‘ni o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 27 foizga o‘shishi kutilmoqda. Uning asosiy qismi mahalliy neftni qayta ishlash zavodlari hisobidan qoplanadi.

Shu bilan birga, ayrim hamkor mamlakatlarda neft mahsulotlari eksportiga cheklovlar joriy etilgani sababli muqobil manbalardan, jumladan, Gruziya, Iroq va boshqa davlatlardan aviakerosin import qilish yo‘lga qo‘yildi.

Geologiya-qidiruv ishlarining sifati va hajmini oshirish maqsadida “O‘zbekgeofizika” aksiyadorlik jamiyatini modernizatsiya qilish rejalariga ham axborot berildi. Kon-geofizika uskunalarini yangilash va zamonaviy dala 3D seysmik majmuasini xarid qilish uchun 38,8 million dollar yo‘naltirish ko‘zda tutilgan.

Shuningdek, xorijiy kompaniyalar, xususan, AQSHning “Schlumberger” kompaniyasi bilan hamkorlikda seysmik ma‘lumotlarni qayta ishlash markazini tashkil etish bo‘yicha ishlar olib borilayotgani ma‘lum qilindi. Markazda zamonaviy superkompyuter majmuasi o‘rnatiladi, yangi dasturiy ta‘minotlar xarid qilinib, seysmik tadqiqotlarda sun‘iy intellektdan keng foydalanish yo‘lga qo‘yiladi.

Mazkur tadbirlar hisobiga yillik 3D seysmik tadqiqotlar maydoni 1 ming 800 kvadrat kilometrdan 5 ming kvadrat kilometrga, o‘rganish chuqurligi esa 4,5 ming metrdan 8 ming metrga yetkaziladi. Tayyorlanadigan istiqbolli geologik tuzilmalar soni 19 tadan 30 taga oshadi.

Quduqlar qurilishida yuqori harorat va bosimga chidamli materiallar, ultratovushli karotaj, real vaqt rejimida geofizik nazorat hamda gorizontaal burg‘ilash texnologiyalarini joriy etish choralari belgilangan. Bu murakkab geologik sharoitlarda quduqlar ishonchligini oshirish, mahsuldor qatlamlardan samarali foydalanish va yuqori debitga erishish imkonini beradi.

Davlatimiz rahbari aholi va iqtisodiyot tarmoqlarini neft mahsulotlari bilan barqaror va uzluksiz ta‘minlash choralarini ko‘rish bo‘yicha topshiriqlar berdi.

Shuningdek, tarmoq korxonalarini texnologik yangilash, energiya samaradorligini oshirish, ishlab chiqarish xarajatlarini qisqartirish va belgilangan chora-tadbirlar ijrosini qat‘iy nazorat qilish vazifasi qo‘yildi.

O‘ZA

EHTIYOJMAND FUQAROLARNI MANZILLI QO‘LLAB-QUVVATLASHDA YANGI XIZMATLAR JORIY ETILADI

Prezident Shavkat Mirziyoyev alohida ta‘lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarni ta‘lim va ijtimoiy xizmatlar bilan qamrab olish, muayyan yashash joyiga ega bo‘lmagan hamda odam savdosidan jabrlangan shaxslarni qo‘llab-quvvatlash, shuningdek, imtiyozli transport xizmatlarini raqamlashtirishga qaratilgan takliflar taqdimoti bilan tanishdi.

Keyingi yillarda mamlakatimizda ijtimoiy xizmatlarni aholiga yaqinlashtirish, ehtiyojmand fuqarolarni manzilli qo‘llab-quvvatlash va sohaga nodavlat sektorni jalb etish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda. So‘nggi uch yilda ijtimoiy xizmatlar soni 23 tadan 140 taga yetdi. Har yili o‘rtacha 4,6 millionta, jumladan, mahalla darajasida qariyb 2 millionta ijtimoiy xizmat ko‘rsatilmoqda.

Bugungi kunda mamlakatimizda nogironligi bo‘lgan 168 mingdan ortiq bola bor. Ularning 133,8 ming nafari ta‘lim va ijtimoiy xizmatlar bilan qamrab olingan. Yana 34,6 ming nafar bolani ta‘limga jalb etish zarur.

Buning uchun ijtimoiy xodimlar ishtirokida “oilabay” ishlash tizimi yo‘lga qo‘yiladi. Har bir bolaning ehtiyojlari erta bosqichda va kompleks baholalanib, unga mos ta‘lim muhiti hamda zarur xizmatlar belgilanadi. Yangi baholash mexanizmi 2026-yil 1-oktabrdan Xorazm va Navoiy viloyatlarida tajriba tariqasida joriy etiladi.

2026/2027-o‘quv yilidan maxsus maktablarda ta‘lim bolaning ehtiyojlari, funksional imkoniyatlari va o‘zlashtirish darajasidan kelib chiqib tuziladigan individual rejalar asosida tashkil etiladi. Ko‘zi ojiz pedagoglarga, shuningdek, maxsus maktablarning boshlang‘ich sinflariga shaxsiy assistent va yordamchi xodimlar ajratiladi.

Nogironligi bo‘lgan bolalarning uyiga yaqin joyda ta‘lim olishiga sharoit yaratish

maqsadida korreksion sinflar tashkil etgan nodavlat maktablarga har bir o‘quvchi uchun subsidiya ajratiladi. Har yili kamida 50 ta maktabning inklyuziv muhitni yaxshilashga qaratilgan tashabbuslari grant asosida moliyalashtiriladi.

2027-yildan bolalarni matnini o‘qish qurilmalari, ovoz sintezatorlari, Brayl displeylari va boshqa assistiv jihozlar bilan vaucher asosida ta‘minlash taklif etildi. 2027/2028-o‘quv yilidan esa nogironligi bo‘lgan shaxslarga kirish va sertifikat imtihonlarida qo‘shimcha vaqt, Brayl alifbosi, surdotarjimon, assistent va boshqa zarur sharoitlar yaratiladi.

Muayyan yashash joyiga ega bo‘lmagan shaxslarga ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish tizimini takomillashtirish bo‘yicha ham yangi yondashuvlar ishlab chiqilgan. Hozir respublikada jami 726 o‘ringa mo‘ljallangan 11 ta reabilitatsiya markazi faoliyat ko‘rsatmoqda. 2026-yilning birinchi yarmida ularga 1,1 ming nafar shaxs joylashtirilgan.

Amaldagi reabilitatsiya muassasalari vaqtinchalik boshpana va ijtimoiy tiklanish markazlariga aylantiriladi. Boshpanasiz shaxslar ushbu markazlarga o‘z murojaati asosida, “mahalla yetiligi”ning o‘rganish natijalariga ko‘ra yoki ijtimoiy xodim va profilaktika inspektori ko‘magida joylashtiriladi. Ularning har biri uchun individual reja ishlab chiqilib, hujjatlarni tiklash, tibbiy va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish, kasbga o‘qitish hamda ishga joylashtirish choralari belgilanadi.

Markazlarda bandlikni qo‘llab-quvvatlash bo‘linmalari tashkil etilib, tadbirkorlarga bo‘sh joylar imtiyozli shartlarda ijaraga beriladi. Boshpanasiz shaxslarga kasbga o‘qish uchun vaucher ajratish, ularni ijtimoiy ehtiyojmand toifalar qatoriga kiritish va ular uchun ish o‘rinlarini xaziralash nazarda tutilmoqda. Nodavlat tashkilotlarga davlat ijtimoiy buyurtmalarini joylashtirish orqali vaqtinchalik boshpana, issiq ovqat va kiyim-bosh bilan ta‘minlash qamrovi kengaytiriladi.

Odam savdosidan jabrlangan shaxslarni aniqlash va reabilitatsiya qilish mexanizmlarini kuchaytirish masalalari ham muhokama qilindi.

2026-yil 1-sentabrdan “Inson” ijtimoiy xizmatlar markazlari orqali mahalla va tuman darajasida odam savdosidan jabrlangan shaxslarning holatini baholash va tegishli xizmatlarga yo‘naltirish tizimi joriy etiladi.

Ayollarni reabilitatsiya qilish va moslashtirish respublika markazi hamda uning hududiy markazlari Ayollar va bolalarni reabilitatsiya qilish respublika markazi va hududiy markazlari etib qayta nomlanadi. Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Qashqadaryo, Samarqand va Farg‘ona viloyatlaridagi hududiy markazlarda odam savdosidan jabrlangan xotin-qizlar va ularning voylarga yetmagan farzandlarini qabul qilish hamda ularga xizmat ko‘rsatish yo‘lga qo‘yilib, qo‘shimcha 40 ta o‘rin yaratiladi.

Shu bilan birga, bola savdosi uchun alohida jinoyi javobgarlik belgilash, odam

savdosi bilan bog‘liq jinoyat sodir etgan shaxslarning mehnat va tashqi migratsiya xizmatlari bilan shug‘ullanish huquqini cheklash, ko‘rsatilayotgan xizmatlarni muntazam monitoring qilish taklif etildi.

Imtiyozli transport xizmatlaridan foydalanish tartibini soddalashtirish masalalari ham ko‘rib chiqildi. Bugungi kunda 1941-1945-yillardagi urush nogironlari va qatnashchilari, ularga tenglashtirilgan shaxslar, shuningdek, Chernobil AESdagi halokat oqibatlarini bartaraf etishda qatnashgan 48,4 mingdan ziyod fuqaro bunday imtiyozlardan foydalanish huquqiga ega. 2025-yilda ular transport xizmatlaridan 1,7 million marta foydalanган.

Yangi tartibga ko‘ra, 11 toifadagi fuqarolarga havo, temir yo‘l va shaharlararo transportda bepul yurish yoki 50 foizlik chegirma beriladi. Qog‘oz talonlar bekor qilinib, chipta xarid qilish uchun ID-karta yoki biometrik pasportni taqdim etish kifoya qiladi. Imtiyoz huquqi “Yagona milliy ijtimoiy himoya” axborot tizimi orqali tekshiriladi.

2027-yil 1-yanvardan imtiyozli avia, temir yo‘l va shaharlararo avtobus chiptalarini “Baraka” ijtimoiy karta mobil ilovasi orqali onlayn xarid qilish imkoniyati yaratiladi.

Davlatimiz rahbari taqdim etilgan takliflarni ma‘qullab, yangi xizmatlarni joylarda sifatli yo‘lga qo‘yish va belgilangan chora-tadbirlar ijrosini qat‘iy nazorat qilish bo‘yicha topshiriqlar berdi.

O‘ZA

ERISHGAN NATIJALARIMIZ YANGI MARRALARNI ZABT ETISH IMKONIYATIDIR

Iyul sarhisobi

Iyul oyida mamlakatimiz ijtimoiy-siyosiy hayotida kuzatilgan voqealar haqidagi so‘zimizni Prezidentimiz raisligida hudud va tarmoqlarda joriy yilning birinchi yarmida erishilgan natijalar hamda yil yakuniga qadar amalga oshirilishi lozim bo‘lgan ustuvor vazifalar muhokamasiga bag‘ishlab o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishidan boshlamoqchimiz.



Insonning kundalik turmushi ham, jamiyat hayoti ham sarhisoblar bilan mukammallik kasb etadi. O‘tayotgan har fursatning pastu balandini tahlit qilish orqali vaziyatga baho beriladi. Ya‘ni yutuqlar ko‘lami, yo‘l qo‘yilgan xatolar, mavjud kamchiliklar

tahlili, qilinajak ishlarning chamasi ana shu jarayonda kundes ravshanlashadi. Demak, aynan shu rakursdan turib fikr yuritishimiz maqsadga muvofiq. Zero, erishilgan natijalar kelgusidagi vazifalar yanada murakkab va mas‘uliyatli bo‘lishini, ular yangi marralarni

zabt etishga yaratilgan imkoniyat ekanini ko‘rsatmoqda.

21-iyul kuni bo‘lib o‘tgan yig‘ilishda iqtisodiy o‘shishning dastlabki bosqichida asosiy e‘tibor bozor munosabatlarni shakllantirishga qaratilgan bo‘lsa, endi

ustuvor vazifa ushbu o‘shish sifatini oshirish, barqarorligini ta‘minlash va har bir fuqaro hayotida amaliy natijaga aylantirishdan iborat ekanini urg‘ulangani ham fikrimizga dalildir.

Davomi 3-betda

TAFAKKUR VA TARAQQIYOT MANZILI

Munosabat

Har bir davrning o‘z ramzi, sadosi va tarixi bo‘ladi. Ba‘zan u asrlar bag‘rida saqlanib qolgan ulug‘vor obida, ba‘zan avlodlar taqdirini birlashtirgan qadimiy shahar, ba‘zan esa hali to‘liq shakllanib ulgurmagan bo‘lsa-da, millionlab insonlarning orzu va intilishlarini o‘zida mujassam etgan yangi maskan bo‘ladi. Yangi Toshkent ana shunday ezgu maqsadlardan dunyoga kelayotgan betakror manzildir.



Zero, bu shahar yuksak ishonch, ulkan jasorat va kelajakka qaratilgan ezgu orzu-niyatlar asosida qad rostlayotgan. Bu yerda qo‘yilayotgan har bir poydevor taraqqiyotning mustahkam qadami, barpo etilayotgan har bir inshoot ertangi kunga yo‘llangan umidlar timsoli, amalga oshirilayotgan har bir loyiha esa avlodlar farovonligi va yurt ravnaqiga xizmat qiladigan ezgu maqsadlarning yorqin ifodasidir.

Yangi Toshkentning eng buyuk xususiyati uning mahobatli binolariga emas, balki insonni hayotning bosh mezonini sifatida e‘zozlaydigan g‘oyasidir. Chunki haqiqiy zamonaviy shaharning qiymati, eng avvalo, unda yashayotgan insonga yaratilgan sharoit, qulaylik va farovonlik bilan o‘lchanadi. Bu shahar qiyofasida ham xavfsiz va osuda hayot, tabiat va taraqqiyot uyg‘unligi, ilm-fan va madaniyat yuksalishi mujassam.

Davomi 2-betda

Nuqtayi nazar

MAMLAKATIMIZ TASHABBUSI VA TAJRIBASI

jahon parlament diplomatiyasini isloh qilmoqda

2026-yil 24-iyul kuni BMT Bosh Assambleyasi O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan ishlab chiqilgan “Ijtimoiy rivojlanishni jadallashtirishda parlamentlarning roliini kuchaytirish to‘g‘risida”gi rezolyutsiyani bir ovozdan qabul qildi.

Mazkur hujjatga barcha mintaqadan BMTga a‘zo 61 davlat hammualliflik qildi. Bu shunchaki rasmiy qo‘llab-quvvatlov emas, balki xalqaro siyosat va diplomatiya nuqtayi nazaridan bir nechta muhim omildan dalolat beruvchi faktdir. Xususan, bu holat yangi O‘zbekistonning tashqi siyosiy nufuzi dunyo hamjamiyati tomonidan yuksak baholanayotgani, mamlakatimiz global kun tartibini belgilashda faqat kuzatuvchi emas, balki xalqaro trendlarni shakllantiruvchi faol ishtirokchiga aylanganini ko‘rsatadi.

Taklif etilgan g‘oya faqat bir mintaq uchun xos bo‘lganida edi, bunchalik ko‘p xayrixoh to‘play olmasdi. Dunyoning barcha qit‘asi (Yevropa, Osiyo, Amerika, Afrika)dan davlatlarning hammuallif bo‘lishi ijtimoiy rivojlanish va unda parlament nazoratini

kuchaytirish butun insoniyat uchun birdek muhim va tizimli masala ekanini isbotlaydi.

Xalqaro hujjatga hammuallif bo‘lish o‘sha davlatning mazkur rezolyutsiya matni va undagi majburiyatlarni to‘liq bo‘lishishini anglatadi. Demak, 61 davlat O‘zbekiston diplomatiyasi yuritgan ko‘p tomonlama muzokaralar natijasiga va ishlab chiqilgan hujjat samarasiga qat‘iy ishonch bildirgan. Rezolyutsiya zaminida yotgan “hech kimni ortda qoldirmaslik” prinsipi, kambag‘allikni qisqartirish va ijtimoiy himoyani kuchaytirish kabi maqsadlar mamlakatlarni umumiy maqsad yo‘lida birlashtira oladigan eng qulay va samarali platforma ekanini yana bir bor namoyon etdi.

Davomi 2-betda



MAMLAKATIMIZ TASHABBUSI VA TAJRIBASI

jahon parlament diplomatiyasini isloh qilmoqda



Nuqtayi nazar



Malika QODIRXONOVA,
Oliy Majlis Senati a‘zosi

Boshlanishi 1-betda

Rezolyutsiyada 2030-yilgacha Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishni jadallashtirishda milliy qonunchilikni takomillashtirish, ijtimoiy himoya tizimini mustahkamlash, kambag‘allikni qisqartirish, munosib bandlikni ta‘minlash, sifatli ta‘lim olish imkoniyatini kengaytirish va ijtimoiy integratsiyani qo‘llab-quvvatlash orqali parlamentlarning asosiy roliga urg‘u berilgan.

Hujjatda alohida e‘tibor xotin-qizlar va yoshlarning parlament faoliyatidagi ishtirokini oshirishga qaratilgan. Buning mohiyati va maqsadi qonunlarni qabul qilishga yondashuvni o‘zgartirishdan iborat. Agar qonun chiqaruvchi organlar tarkibida ushbu muammolarni eng ko‘p his qiladigan

aholi guruhlari mavjud bo‘lmasa, bu idoralar ijtimoiy muammolarni samarali hal qila olmaydi. Shu ma’noda, hujjatda to‘g‘ridan to‘g‘ri vakillikka urg‘u berilib, ayollar va yosh deputatlar sonini oshirish uchun aniq mexanizmlar, masalan, kvotalar yoki yoshlar parlamentlarini joriy etishga chaqiriq mavjud.

Qolaversa, bunday vakillik byudjetlarga ham ta’sir qiladi. Mohiyat shundaki, sog‘liqni saqlash, ta’lim va bolalar nafaqasiga davlat mablag‘ini taqsimlashda nafaqat erkak amaldorlar, balki ayollarning fikri ham inobatga olinadi.

Parlament faoliyatiga yoshlarni jalb qilish raqamlashtirish, mehnat bozori va startaplar to‘g‘risidagi qonunlarni ushbu yangi iqtisodiy voqelikda yashaydigan yigit-qizlarning tayyorlashiga qaratilgan. Qolaversa, bu ishonch inqirozini bartaraf etishga ham xizmat qiladi. Gap shundaki, parlamentlar ko‘pincha jamiyat tomonidan keksa erkaklarning yopiq klublari sifatida qabul qilinadi. Yoshlar va ayollarni jalb qilish fuqarolarning davlatga ishonchini mustahkamlaydi.

Masalaning yana bir jihati — iqtisodiy samaradorlik. Jumladan, ayollar qonunlarni qabul qilishda faol ishtirok etadigan mamlakatlar qashshoqlik darajasini tezroq kamaytirishi va ijtimoiy resurslarni samaraliroq taqsimlashi isbotlangan. Qolaversa, demografik muammolarni hal qilish masalasi ham bor: aholisining ko‘pini yoshlar tashkil etadigan Markaziy Osiyo kabi mintaqalar uchun ularning parlamentdagi ovozi e’tiborsiz qoldirish ijtimoiy beqarorlik xavfini keltirib chiqaradi.

Bundan tashqari, uzoq muddatli barqarorlik masalasi ham mavjud: bugun



parlamentda tajriba orttirgan yosh rahbarlar ertaga siyosiy avlodlarning ravon va professional almashinuvini ta’minlaydi. Rezolyutsiyadagi bu urg‘u so‘nggi yillarda Oliy Majlisga saylovlarda qat’iy gender kvotalari joriy etilgan va Yoshlar parlamenti komissiyasi tashkil etilgan O‘zbekistondagi islohotlarni bevosita aks ettiradi.

Xususan, so‘nggi parlament saylovlari natijasiga ko‘ra, O‘zbekiston ayol deputatlar soni bo‘yicha Markaziy Osiyoda birinchi o‘rinni egallab, ayollar va yoshlar vakilligi bo‘yicha tarixiy yuqori ko‘rsatkichga erishdi. Bu ko‘rsatkichlar qabul qilingan rezolyutsiyada mustahkamlangan BMT standartlari va tavsiyalariga bevosita mos keladi.

Siyosiy partiyalar uchun majburiy gender kvotasining qonunchilik yo‘li bilan 40 foizga oshirilishi tufayli Oliy Majlis tarkibi tubdan o‘zgardi: Qonunchilik palatasida ayollar ulushi 38 foizga yetdi (150 o‘rindan 57 tasi).

Senatda ayollar 27 foiz o‘rinni egalladi. Yuqori palataga ayol siyosatchi Tanzila Norboyeva rahbarlik qilmoqda. Mahalliy kengashlarga kelsak, hududiy darajadagi ayollar ulushi 32,5 foizga yetdi.

Mamlakatimizning mazkur yutuqlari xalqaro e’tirofga sazovor bo‘lmoqda. Jumladan, Parlamentlararo ittifoqning “Parlamentdagi ayollar” global reytingida O‘zbekiston dunyoda 38-o‘ringa, Gender tenglik va boshqaruv indeksida esa 103-o‘rindan 52-o‘ringa ko‘tarildi.

Gender tenglikka erishish strategiyasini amalga oshirish maqsadida O‘zbekiston vazirlik va idoralari davlat budjetini rejalashtirishda majburiy gender ko‘rsatkichlarini joriy eta boshladi. Bu — endi pul ayollar va bolalar ehtiyojini hisobga olgan holda taqsimlanadi degani.

O‘zbekiston rasmiy yoshlar faolligidan haqiqiy qonunlarni qabul qilishda yosh kadrlarni tizimli jalb qilishga o‘tdi.

Parlamentlararo ittifoq ma’lumotlariga ko‘ra, milliy parlament deputatlarining 42 foizini 45 yoshgacha bo‘lganlar tashkil etadi. Quyi palata amaldagi tarkibining deyarli 40 foizi 30 yoshdan 45 yoshgacha bo‘lgan yosh mutaxassislardan iborat. Ular axborot texnologiyalari, innovatsiyalar, iqtisodiyot va ijtimoiy himoya qo‘mtalarining asosini tashkil etadi.

Yoshlar parlamentining to‘g‘ridan to‘g‘ri integratsiyasi haqida so‘z yuritib, Oliy Majlis Senati va Qonunchilik palatasi huzurida doimiy faoliyat yurituvchi Yoshlar parlamentlari tashkil etilishi mamlakatimizning bu yo‘nalishdagi noyob tajribasi bo‘lganini ta’kidlash joiz. Ushbu palatalar a’zolari O‘zbekistonning har bir ma’muriy tumaniga biriktirilgan. Ular bevosita joylarda yoshlarning ijtimoiy so‘rovlarini to‘playdi.

Raqamli ko‘prik ham e’tibordan chetda qolmadi: O‘zbekiston parlamenti yosh fuqarolarga qonunchilik tashabbuslarini bevosita tegishli deputatlarga taqdim etish imkonini beruvchi AT platformalarini kengaytirdi. Bu BMTning yangi rezolyutsiyasida ham tavsiya sifatida qayd etilgan.

Shuningdek, BMTning mazkur rezolyutsiyasida Toshkent shahrida Parlamentlararo ittifoqning 150-Assambleyasi o‘tkazilgani hamda ijtimoiy rivojlanish va ijtimoiy adolat yo‘lida parlament harakati to‘g‘risida Toshkent deklaratsiyasi qabul qilangani ham e’tirof etilgan. O‘tgan yili Toshkent shahrida o‘tkazilgan Parlamentlararo ittifoqning 150-Assambleyasida Prezidentimiz Samarqand shahrida Yosh parlament a’zolarining XII global konferensiyasini o‘tkazish taklifini ilgari surgan edi. Qisqa muddatda ushbu tashabbus xalqaro hamjamiyat tomonidan qo‘llab-quvvatlanib, 151-Assambleya doirasida konferensiyani

shu yil 4-6-sentabr kunlari Samarqand shahrida o‘tkazish bo‘yicha namunaviy bitim imzolandi.

Samarqand shahridagi “Silk Road Samarkand” majmuasida bo‘lib o‘tadigan Parlamentlararo ittifoq yosh parlament a’zolarining XII Global konferensiyasi BMT Bosh Assambleyasining yaqinda qabul qilingan ushbu rezolyutsiyasining bevosita amaliy davomi va uni amalga oshirish mexanizmidir.

BMT rezolyutsiyasi xalqaro konsensusni rasman qayd etdi. Yoshlarni qonun ijodkorligiga keng jalb etmay turib, ijtimoiy taraqqiyotni ta’minlab bo‘lmagligi tan olindi.

Samarqanddagi konferensiya butun dunyodan yosh deputatlar ushbu rezolyutsiyani milliy darajada amalga oshirish bo‘yicha aniq qadamlarni ishlab chiqish uchun to‘planadigan birinchi yirik global maydon bo‘ladi. Anjumanning markaziy mavzusi — notinch zamonda barcha uchun inson huquqlari, adolat va qadr-qimmatni himoya qilish. U rezolyutsiyaning ijtimoiy ustuvor yo‘nalishlariga to‘liq mos keladi.

Yosh yetakchilar tengdoshlarining iqtisodiy huquqlarini himoya qilish va ularning sifatli bandligini ta’minlash, raqamli transformatsiya sharoitida yangi avlodning siyosiy huquq va imkoniyatlarini kengaytirish, xotin-qizlarga nisbatan zo‘ravonlikning oldini olish va ularni qaror qabul qilish jarayoniga jalb etish kabi muhim masalalarni muhokama qiladi.

Umuman olganda, BMT rezolyutsiyasi mamlakatlarini Barqaror rivojlanish maqsadlarini amalga oshirishda parlament a’zolarini faolroq jalb qilishga undaydi. Yoshlar konferensiyasi bilan bir vaqtda Samarqandda Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishda parlamentlararo hamkorlik bo‘yicha III Global forum o‘tkazilishi ramziy ma’noga ega. Bu ham yosh qonun chiqaruvchilarning tajribasini BMTning 2030-yilgacha bo‘lgan strategik maqsadlari bilan bevosita bog‘lash imkonini beradi.



Munosabat



Ravshan FOZILOV,
Oliy Majlis Qonunchilik
palatasi deputati

Boshlanishi 1-betda

Prezidentimizning Yangi Toshkent shahrida bajarilayotgan qurilish ishlari bilan tanishgani ushbu ulkan bunyodkorlik jarayonlariga yanada yuksak mas’uliyat va yangi sur’at bag‘ishlaydi. Eng muhimi, ushbu tashrif Yangi Toshkentni zamonaviy, qulay va inson manfaatlariga mos shahar sifatida shakllantirish yo‘lidagi ishlarga yanada aniq maqsad va mazmun baxsh etdi. Belgilab berilgan vazifalar esa har bir inshootda sifat, har bir loyihada puxtalik va har bir qarorda kelajak avlodlar manfaatlarini ustuvor etish tamoyillarini mustahkamlaydi.

Yangi Toshkent shahrini barpo etish direksiyasi bugun mamlakatimizdagi eng yirik shaharsozlik loyihalaridan birini hayotga tatbiq etayotgan muhim tuzilmadir. U



TAFAKKUR VA TARAQQIYOT MANZILI

zamonaviy shaharsozlik tamoyillarini milliy me’morlik an’analari bilan uyg‘unlashtirgan holda qurilish ishlarni muvofiqlashtirish, muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlari qurish va infratuzilmani izchil rivojlantirishda hal qiluvchi o‘rin tutadi.

Davlatimiz rahbarining tashrifi Yangi Toshkent shahrini barpo etish direksiyasidan boshlandi. Bu yerda shaharning ulkan

maketi va raqamli xaritasi go‘yo kelajakning hozirgi zamondagi aksidek namoyon bo‘ldi. Prezidentimizga keng ko‘lamli qurilish ishlarining borishi, yirik obyektlarning joylashuvi hamda navbatdagi bunyodkorlik rejalari haqida axborot berildi.

Transport va muhandislik infratuzilmasini qurilishlar bilan uyg‘un rivojlantirish, yashil hududlar va jamoat makonlarini, Yangi Toshkentni poytaxtning amaldagi hududi bilan uzviy bog‘lash bo‘yicha belgilangan vazifalar shaharning barqaror va mutanosib rivojlanishiga xizmat qiladi. Muhimi, bu yondashuv aholi uchun yanada qulay transport tizimini shakllantirish, ekologik muvozanatni ta’minlash, muhandislik tarmoqlari samaradorligini oshirish va inson manfaatlariga yo‘naltirilgan zamonaviy shahar muhitini yaratishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Barcha loyihalar yaxlit shaharsozlik konsepsiyasi asosida, yuqori sifat va me’moriy uyg‘unlikni ta’minlagan holda amalga oshirilishi esa Yangi Toshkentning betakror qiyofasini shakllantirish, kelgusi o‘n yilliklarda ham zamonaviy va yashash uchun jozibador shahar bo‘lib qolishini ta’minlaydi.

Yangi Toshkent shahrining ilk bosqichida barpo etilayotgan muhim ma’naviy-ma’rifiy maskanlardan ushbu maskan Yangi Toshkentning nafaqat me’moriy qiyofasini, balki ilm-fan va ma’rifatga yo‘naltirilgan yuksak maqsadlarini ham ifodalaydi. Yangi kampus tarkibida o‘quv binolari, ilmiy laboratoriyalar, axborot-resurs markazi, elektron kutubxona, talabalar turar joylari, sport va madaniyat inshootlari bo‘ladi. Bu yerda ta’lim, ilmiy tadqiqot va talabalar hayotini bir makonda uyg‘unlashtirgan yaxlit muhit yaratiladi. Natijada u nafaqat bilim dargohi, balki yangi g‘oyalarni tug‘iladigan, ilmiy izlanishlar rivojlanadigan va kelajak pedagoglari kamol topadigan ma’rifat markaziga aylanadi.

Zamonaviy yechimlar, qulay ta’lim muhiti va ilg‘or infratuzilma uyg‘unligida barpo etilayotgan ushbu maskan Yangi Toshkentning nafaqat me’moriy qiyofasini, balki ilm-fan va ma’rifatga yo‘naltirilgan yuksak maqsadlarini ham ifodalaydi. Yangi kampus tarkibida o‘quv binolari, ilmiy laboratoriyalar, axborot-resurs markazi, elektron kutubxona, talabalar turar joylari, sport va madaniyat inshootlari bo‘ladi. Bu yerda ta’lim, ilmiy tadqiqot va talabalar hayotini bir makonda uyg‘unlashtirgan yaxlit muhit yaratiladi. Natijada u nafaqat bilim dargohi, balki yangi g‘oyalarni tug‘iladigan, ilmiy izlanishlar rivojlanadigan va kelajak pedagoglari kamol topadigan ma’rifat markaziga aylanadi.

Bu yerda barpo etilayotgan O‘zbekiston Milliy kutubxonasining yangi binosi ham yangi shaharning ma’naviy yuragi bo‘ladi. Zero, zamonaviy kutubxona nafaqat kitoblarni saqlanadigan maskan, balki yangi g‘oyalar tug‘iladigan, ilmiy izlanishlar rivojlanadigan, yosh avlodning ma’naviy va intellektual salohiyatini yuksaltirishga xizmat qiladigan ulkan ma’rifat dargohi vazifasini o‘taydi. Kutubxonada yaratiladigan sharoitlar ilm ahli, tadqiqotchilar va kitobxonlar uchun keng imkoniyatlar ochadi.

Umumiy maydoni 30 ming kvadrat metrdan ortiq bo‘lgan to‘rt qavatli bino bir vaqtning o‘zida 1420 kitobxonga xizmat ko‘rsatish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Uning me’moriy yechimida milliy an’ana va zamonaviy uslub uyg‘unlashtirilgan.

Kutubxonada kitob fondlarini saqlash, hisobga olish, xavfsizligini ta’minlash va zararsizlantirish uchun maxsus yuqori texnologiyali xonalar tashkil etilishi boy ma’naviy merosimizni asrab-avaylash, noyob adabiy va ilmiy manbalarni kelajak avlodlarga yetkazishda muhim ahamiyat kasb etadi. Natijada kutubxona zamonaviy bilim maskani bo‘lish bilan birga xalqimizning

ma’naviy merosini asraydigan betakror xazina sifatida xizmat qiladi. Xalqaro va milliy yirik kutubxonalarning elektron bazalaridan onlayn foydalanish imkoniyati yaratiladi.

Ko‘zi ojiz fuqarolar uchun maxsus o‘quv va tadqiqot muhiti, 300 o‘rinli kafe, galereya, sport va dam olish hududlari barpo etilishi kutubxonani bilim olish, muloqot qilish, madaniy hordiq chiqarish va vaqtni mazmunli o‘tkazish mumkin bo‘lgan qulay maskanga aylantiradi. Asosiysi, bu sharoitlar har bir inson, jumladan, imkoniyati cheklangan fuqarolar uchun ham teng imkoniyat yaratish, kutubxonadan keng va samarali foydalanishga xizmat qiladi.

Tashrif davomida Yangi Toshkentda barpo etilayotgan zamonaviy futbol stadionidagi ishlar ko‘zdan kechirilib, qurilishni belgilangan muddatda va yuqori sifat bilan yakunlash, uni transport tizimini hamda Yangi Toshkentning umumiy shaharsozlik muhiti bilan uyg‘unlashtirish bo‘yicha ko‘rsatmalar berildi.

FIFAning barcha talablariga muvofiq qurilayotgan mazkur sport majmuasida sportchilar, muxlislar va ommaviy axborot vositalari vakillari uchun yaratilayotgan sharoitlar yirik xalqaro musobaqalarni qabul qilish bilan birga yoshlar sportini rivojlantirish, professional futbolchilar tayyorlash va mamlakatda zamonaviy sport infratuzilmasini kengaytirishga xizmat qilishi shubhasiz. U sog‘lom turmush tarzi, yoshlar iste’dodini ro‘yobga chiqarish va xalqaro darajadagi sport tadbirlarini o‘tkazishga xizmat qiladigan muhim maskanga aylanadi.

Har qanday buyuk shahar, avvalo, g‘oyadan boshlanadi. Parij, Dubay, Singapur kabi shaharlar o‘z davrida katta orzu va jasorat bilan barpo etilgan.

Yangi Toshkent ham bugun ana shunday tarixiy jarayonning yangi sahifasini yozmoqda. U kelajakka qarab intilayotgan, taraqqiyot va yangilanish ruhini o‘zida aks ettirayotgan zamonaviy shahar sifatida shakllanmoqda. Bu yerda qad rostlayotgan har bir bino, har bir inshoot esa kelajak avlodlar uchun munosib hayot muhitini yaratishdek yuksak maqsadga xizmat qilishi aniq.

Yangi Toshkent faqat yangi hudud emas, balki yangi tafakkur, yangi imkoniyatlar va yangi taraqqiyot yo‘lining yorqin ifodasidir. Davlatimiz rahbarining mazkur tashrifi ham Yangi Toshkentdek ulkan va ezigu loyihaga yanada yuksak mas’uliyat, yangi ruh va aniq maqsadlar baxsh etdi. Shu nuqtayi nazardan, biz deputatlar ham berilgan vazifalar ijrosini ta’minlash, xalqimiz manfaatlarini ifoda etish va Yangi Toshkentning zamonaviy, obod hamda farovon shahar sifatida shakllanishiga munosib hissa qo‘shish yo‘lida yanada faol, tashabbuskor va mas’uliyatli bo‘lishimiz lozim. Zero, bugungi sa’y-harakatlar ertangi avlodlar uchun barpo etilayotgan yangi shaharning mustahkam poydevoriga aylanadi.



Navbatdagi yig'ilishda Prezidentimizga xalqaro ta'lim standartlari asosida o'rta maxsus, kasbiy va oliy ta'lim dasturlarini joriy etish, nufuzli xorijiy universitetlar bilan akademik hamkorlikni kengaytirishga qaratilgan takliflar taqdimot qilindi. Pensiya tizimini isloh qilish bo'yicha takliflar ko'rib chiqilgan yig'ilishda esa

A portrait of a middle-aged man with short, graying hair, wearing a dark blue suit jacket over a black shirt. He is looking slightly to the right with a serious expression. The background is a blurred indoor setting with green and brown tones.

Boshlanishi 1-betda

Birgalikda yangi hayot va kelajak yaratamiz


 VTB
 BANK OF RUSSIA

-MASHAQQATLI
 MENNATILAN
 BARCHANI O'ZIMIZNI
 HORMAT QILISNGA
 MAJBUR QILAMIZ.
 Shavkat Mirziyoyev


Samimiyyət və yüksək ehtiramlar

Ko'p qirrali hamkorlik yo'lida

Bundan tashqari, davlatimiz rahbari 17-iyul kuni O'zbayjon Respublikasi ittisodiyoti vaziri Mikoyil Jabborov, 20-iyul kuni Belarus Respublikasi Bosh vaziri o'rinbosari Viktor Karankovich, 28-iyul kuni Saudiya Arabiston Podshohligi sog'liqni saqlash vaziri Fahad bin Abdulrahmon al-Jalalij boshchiligidagi delegatsiyalarni qabul qildi.

Muxtasar aytganda, yozning harorati eng yuqori ko'rsatkichga chiqqan iyul oyini mamlakatimiz siyosiy-ijtimoiy hayotida ham yuqori mavsum sifatida tarixga muhurlandi.

Yoki maqola avvalida ta'kidlaganimizdek, inson manfaatlarini ustuvor jamiyat sari navbatdagi dadil qadamlar pallasi bo'ldi.



Sirojiddin SAYYID,
O'zbekiston xalq shoiri

EZGULIKKA DARGOH BO'L

Sahar turib shukr qil,
Shabnamlarga gapirgil.
O'z ko'nglingni supurgil,
O'z uyingni supurgil.
Ostonangni ko'rgil-u
O'z onangni fikr qil.
Qo'rg'onlaring, uylaring
Mehnatu zahmatingdir.
Ostonangga hurmating —
Onangga hurmatingdir.

Devoringga bir g'isht qo'y,
Daraxtlarni oqlab qo'y.
Borib mozor boshiga
Otagni ham yo'qlab qo'y.
Bu dunyoning ko'rki gar
Bog'u gulzoridandir.
U dunyoga ostonang
Otag mozoridandir.
Ostonangga hurmating —
Otagga hurmatingdir.

Tug'ishgan uy deganda
Nechun ko'zlar yoshlanar?
Vatan mehri, yurt mehri
Ostonangdan boshlanar.
Bu dunyoda ortingdan
Qolar yorug' izingdir.
Ostonangda kutgan shu
Aziz o'g'il-qizingdir.
Ostonangga hurmating —
Bolangga hurmatingdir.

Vatanlar bor — qush uchmas,
Tinchlik osmondan tushmas.
Sahar turib fikr qil,
Tinch elingga shukr qil.
Ezgulikka dargoh bo'l,
Ogoh bo'l-u ogoh bo'l.
Oylar o'tar, yil o'tar,
Ostonangdan el o'tar.
Ostonangga hurmating —
Odamga hurmatingdir.

O'z burchingni fikr qil,
Insonsan-ku, shukr qil.
Vatan — bo'yningdagi qarz,
Ko'changga bir gul o'tqaz.
Toki fayzu tarovat
Har uy, binoda bo'lsin.
Vatan ozoda bo'lsin!
Vatan ozoda bo'lsin!
Ostonangga hurmating —
Vatanga hurmatingdir.

2025-yilda O'zbekistonga tashrif buyurgan 11 milliondan ortiq xorijlik sayyoh orasida Qirg'iziston (3,3 million), Qozog'iston (2,7 million) va Tojikiston (2,7 million) kabi qo'shni davlatlar fuqarolari ulushi salmoqli ekanini ko'rish mumkin.



O'ZBEKISTON – “MARKAZIY OSIYO TURIZM HALQASI” TAYANCHI

Prezidentimizning Qirg'izistonga 30-iyul – 1-avgust kunlaridagi davlat tashrifi ikki davlat munosabatlarida yangi davrni boshlab berayotgan muhim siyosiy voqealik bo'ldi. Tashrif davomida 31-iyul kuni Markaziy Osiyo va Ozarbayjon davlat rahbarlarining Cho'ponota shahrida o'tkazilgan norasmiy uchrashuvida mintaqaning ertangi taraqqiyot yo'liga bog'liq muhim masalalar ko'rib chiqildi.

Keyingi yillarda Prezidentimizning kuchli siyosiy irodasi, oqilona tashabbuslari hamda qo'shni mamlakat rahbarlarining xayrixohligi, ezgu tashabbuslarni qo'llab-quvvatlashi bilan mintaqada do'stlik-birodarlik zanjiri mustahkamlandi. Bu o'zaro yaqinlik bir qarashdoyq barcha sohalarda namoyon bo'layotganini ko'rish mumkin.

Cho'ponotada o'tkazilgan uchrashuvda Qirg'izistonning Markaziy Osiyo mamlakatlariga sayohat qilishni xohlovchi xorijiy fuqarolar uchun yagona turistik viza joriy etish tashabbusi bildirildi. Ayni tashabbus O'zbekiston va Qozog'iston tomonidan ma'qullandi. Bu, eng avvalo, davlatlarimiz o'rtasidagi do'stona aloqalarni yanada mustahkamlaydi. Aslida, ushbu tashabbus kecha yoki bugun paydo bo'lib qolgani yo'q. Bu islohotlarning tadrijiy ko'tarilishi natijasidir.

Osiyo taraqqiyot banki Boshqaruvchilar kengashining shu yil 4-may kuni Samarqandda bo'lib o'tgan 59-yillik yig'ilishidagi nutqida “Toshkent shahrida ochilgan, Markaziy Osiyoning ilm-fan va ma'naviy xazinasini sifatida e'tirof etilayotgan Islom sivilizatsiyasi markazi, Samarqandda barpo etilgan buyuk alloma Imom Buxoriy yodgorlik majmuasi yurtimizning yangi durdonalariga aylandi. Bunday majmualar qo'shni mamlakatlarda ham bunyod etilmoqda. Shu bois, mintaqa davlatlarini birlashtiradigan turistik makon — “Markaziy Osiyo turizm halqasi”ni yaratish tashabbusini ilgari suramiz...”, deya qayd etgan edi.

Ayni tashabbus butun mintaqa mamlakatlari uchun birdek manfaatli bo'lishi shubhasiz. O'zbekiston esa ushbu halqaning birlashtirib turuvchi yuragiga aylanishi ayni muddao.

Bu borada joriy yilda katta ishlar qilindi. Xususan, dunyoning nufuzli 10 muzeyi ro'yxatiga kiritilgan Islom sivilizatsiyasi markazi bunyod etilishi chinakam tarixiy voqea bo'ldi. Ushbu muhtasham majmua Markaziy Osiyoning jahon tamadduniga qo'shgan ulkan hissasini aks ettirgani, muqaddas dinimiz tarixini mujassam qilgan ilmiy-ma'rifiy maskan ekani bilan g'oyat muhim ahamiyatga ega. U musulmon ziyoratchilarni jalb etuvchi muhim sayyohlik obyektlaridan biri sifatida ham namoyon bo'ldi.

Yurtimizning har bir hududida mana shunday diqqatga sazovor manzillar ko'payishi, qolaversa, bugungi shiddatli bunyodkorliklar O'zbekistonning turizm salohiyatini karrasiga o'rtirmoqda desak, adashmagan bo'lamiz.















2025-yilda mamlakatimizda sayyohlar soni 11 milliondan oshib, turizm xizmatlari eksporti 4,8 milliard dollarga yetdi. Bu so'nggi 8-yilda yurtimizga kelgan sayyohlar soni 6 barobar ko'payib, 2030-yilga qadar 20 millionga, turizmning yalpi ichki mahsulotidagi ulushini esa 7 foizga yetkazish yo'lida dadil borayotganimizni bildiradi.

Prezidentimiz Farg'ona viloyatiga tashrifi doirasida Marg'ilon shahrida “Burhoniddin Marg'inoniy” ilmiy-ma'rifiy va turizm majmuasi ochilishi marosimidagi nutqida qayd etganidek, keyingi yillarda milliy me'morlik yechimlarini qo'llagan holda tarixiy va zamonaviy an'analarni mujassam etgan yirik turistik majmualar barpo etishga alohida e'tibor qaratilayotgani. Xususan, Samarqandda “Buyuk ipak yo'li” va Imom Buxoriy majmualari, Xorazmda “Arda Xiva” xalqaro turizm markazi ishga tushirildi. Bu yirik loyihalar yil sayin O'zbekistonning turizm salohiyati o'tib borishiga zamin yaratmoqda. 2026-yil birinchi chorakda O'zbekistonga 3 millionga yaqin xorijlik sayyoh tashrif buyurgani ushbu islohotlarning kichik bir davrdagi samarasidir.

Turizm — iqtisodiyotning ortiqchilik va eng jozibador tarmoqlaridan biri. U sardarcha xomashyo talab qilmasligi bilan ham dunyo davlatlari e'tibor markazida turibdi. Chunki turizm xizmat ko'rsatish, tadbirkorlik, savdo-sotiq va boshqa qator yo'nalishlarni harakatga keltiruvchi drayver sifatida davlatga ham bevosita, ham bilvosita foyda olib keladi. Bundan tashqari, oddiy xalqqa to'g'ridan to'g'ri daromad manbai bo'la olishi bilan ahamiyatli. Zero, neft-gaz kabi tabiiy mahsulotlarga boy arab mamlakatlarining katta mablag' sarflab zamonaviy shaharlar qurishi, sporting turli yo'nalishlari bo'yicha jahon chempionatlariga mezbonlik qilishga davog'ar bo'lishi ortidan sayyohlarni o'ziga jalb etishga urinishlari bejiz emas.



Zarrabin



iborat bo'ldi. E'tibor bering, hech bir mintaq ko'rsatkichi Yevropaning yarmiga ham yetmaydi.

Shuningdek, yana bir fakt vaziyatga ko'proq oydinlik kiritadi. Yevropa turizm komissiyasi ma'lumotlariga ko'ra, mintaqaga sayohat qiluvchilarning 68 foizi bir vaqtning o'zida 3-4 ta mamlakatga borishni rejalashtiradi. Bitta sayyoh bir necha mamlakatda alohida sayohatchi sifatida qayd etiladi. Bu esa sayyohlar Yevropaga qisqa muddatga kelmasligidan darak. Shu bilan birga, ayni holat mintaqaning umumiy reytingdagi o'rni ko'tarilishiga va dunyo turizm maydonida sayyohlarni eng ko'p jalb etuvchi hudud sifatida muqarrar joy olishiga zamin yaratadi.

Yuqorida ta'kidlanganidek, yagona viza tizimi (Shengen) 29 ta mamlakatga erkin sayohat qilish imkoniyatini taqdim etadi. Ammo Yevropada eng yuqori ko'rsatkichlar Fransiya, Italiya va Ispaniyaga tegishli. Bu mazkur mamlakatlarda turizmga qaratilayotgan kuchli e'tibor, shuningdek, ularni bir-biriga bog'lovchi transport hamda boshqa infratuzilmalar qulayligi bilan bevosita bog'liq.

Masalan, sizdan “Turkiya, Braziliya yoki Tailanddan biriga borishni istaysizmi yoki butun boshli Yevropagami?”, deb so'rashsa, qay birini tanlagan bo'lardingiz?

Yevropaning turizm salohiyatini tahlil qilishimizdan asosiy maqsad shuki, O'zbekiston ham xuddi shunday turizm jozibasini namoyon eta oladigan mintaq, ya'ni Markaziy Osiyoning qoq markazida joylashgan mamlakatdir. Bunday tizim joriy etilishi nafaqat O'zbekistonga, balki mintaqadagi barcha davlatlarga birdek foyda keltiradi. Xo'sh, Markaziy Osiyo mintaqasida shunday infratuzilmani yaratish mumkinmi? Agar bu savol bundan o'n yillar oldin berilganda edi, bunday tizim yaratishga to'siq bo'lvchi bir necha omilni sanab o'tgan bo'lardik. Ammo keyingi yillarda Prezidentimiz tashabbusi va qo'shni mamlakatlar rahbarlari xayrixohligi natijasida bu to'siqlar bima-bir hal etildi. Yaxshi qo'shni mamlakatlariga qayta tiklandi. O'tgan yilning bahorida O'zbekiston, Qirg'iziston va Tojikiston o'rtasida uch mamlakatning davlat chegaralari tutashgan nuqtasi to'g'risidagi shartnoma imzolandi. Mintaqaning eng muammoli hududi bo'lgan Xo'jandda qad rostlagan “Do'stlik stelasi” mamlakatlarning abadiy do'stligi va hududdagi tinchlik-totuvlik ramziga aylandi.

O'zbekiston, Qozog'iston va Turkmaniston chegaralarining tutash hududi to'g'risidagi shartnoma esa ilgariroq imzolangan edi. Bugungi kunga kelib, Markaziy Osiyodagi chegaraviy munosabatlarni butkul istiqbolli yechim topdi. Bu, o'z navbatida, dunyo nigohida yuqori turizm salohiyatiga ega mintaqamizni yagona turistik obyekti sifatida namoyon etish yo'lidagi eng muhim qadamlardan biridir.

Yagona viza tizimi. 2018-yilda O'zbekiston va Qozog'iston “Ipak yo'li” (Silk Road Visa) umumiy viza rejimini joriy etish bo'yicha muzokaralar boshlagan edi. Ikki mamlakatning umumiy viza rejimini joriy etish bo'yicha kelishuvlariga o'sha vaqtning o'zidayoq Tojikiston va Qirg'iziston qiziqish bildirgan. Hatto bu tizimga Ozarbayjon va Turkiya ham qo'shilishi ko'rib chiqilgan. Ammo pandemiyaga masalaning kun tartibidan tushishiga sabab bo'ldi. Lekin qandaydir ma'noda bu g'oya unutilib ketdi deb bo'lmaydi. Bosqichma-bosqich ushbu maqsad sari qadam tashlanmoqda. Masalan, O'zbekiston va Qirg'iziston o'rtasida fuqarolarning davlat chegarasini milliy ID kartalar bilan kesib o'tishi yo'lga qo'yildi. O'zbekistonning Qozog'iston va Tojikiston bilan chegara postlarida o'tkazuvchanlik quvvati yanada ortdi. Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasida fuqarolarning harakatlanishi yil sayin qulaylashib, soddalashib va turli cheklavlardan xoli bo'lib bormoqda.

2025-yil Qirg'iziston Prezidenti Sadir Japarov O'zbekiston, Qirg'iziston va Tojikiston o'rtasida davlat chegaralarining tutashuv nuqtasi to'g'risidagi shartnoma imzolashini hamda chegara hududida “Do'stlik stelasi” barpo etilishi oldidan “Facebook” ijtimoiy tarmog'ida qoldirgan posti orqali Markaziy Osiyo davlatlariga yagona viza joriy etish taklifini yana bir bor kun tartibiga olib chiqdi. Xususan, u “Markaziy Osiyo mamlakatlari o'zaro vizasiz rejimini, boshqa davlatlardan kelgan mehmonlar uchun esa Shengen vizasi kabi mintaqaning barcha mamlakatlari bo'ylab erkin harakatlanish imkonini beruvchi yagona vizani joriy etish jarayonini boshlashi kerak”, deya qayd etdi. Markaziy Osiyo va Ozarbayjon davlat rahbarlarining Cho'ponota shahrida bo'lib o'tgan norasmiy uchrashuvida esa yana bu masala kun mavzusiga aylandi.

Transport infratuzilmasi. Markaziy Osiyo davlatlarini o'zaro bog'lovchi transport

infratuzilmasini barpo etish borasida ulkan ishlar qilinmoqda. Davlatlar, avvalo, ichki imkoniyatlarini kuchaytirishga e'tibor qaratmoqda. Masalan, O'zbekistonda poytaxtni vodiy viloyatlari hamda Samarqand bilan bog'laydigan pulli yo'llarni qurish loyihasi avtomobil yo'llari tizimida katta yangilik bo'ladi. O'rta Chirchiq va Quyi Chirchiq tumanlaridagi 1300 gektar maydonda barpo etilayotgan aeroport ham Markaziy Osiyoda eng katta transport infratuzilmasini tashkil etish borasidagi yirik loyihadir. Uning o'ziga xos jihati — multimodal transport bog'lanmasi paydo bo'lishida. Ushbu hudud Toshkent — Samarqand, Toshkent — Andijon va Toshkent — Bo'stonliq pulli avtomobil yo'llariga ulanadi. Bu yerda zamonaviy temir yo'l stansiyasi qurilib, tez-yurar poyezd qatnovi yo'lga qo'yiladi. Poytaxt va Yangi Toshkent markazlari esa shatli transport xizmatlari orqali o'zaro bog'lanadi.

O'zbekiston nafaqat ichki yo'l infratuzilmasini yaxshilamoqda, balki qo'shni va rivojlangan mamlakatlar bilan hamkorlikda mintaqani o'zaro bog'lovchi infratuzilmani barpo etishga ham munosib hissa qo'shmoqda. Prezidentimiz tashabbusi, shuningdek, qo'shni va hamkor davlatlarning xayrixohligi asosida teng manfaatli kelishuvlarga muvofiq amalga oshirilayotgan uchta yangi xalqaro temir yo'l liniyasini qurish va ishga tushirish loyihalari O'zbekistonning mintaqadagi imkoniyatlarini karrasiga o'ttiradi. Jumladan, ayni paytda “Xitoy — Qirg'iziston — O'zbekiston” temir yo'li qurilmoqda. Bundan tashqari, mintaqa mamlakatlarini bir-biri bilan bog'laydigan turli yo'nalishdagi yo'l infratuzilmalari barpo etilmoqda. Bu esa, o'z navbatida, turizm salohiyatini butunlay yangi bosqichga olib chiqadi.

Yo'l infratuzilmasi rivojlanishi hamda davlatlar o'rtasidagi erkin harakatlanish ish imkoniyati mintaqada ichki turizmini yuksaltirishga xizmat qilmoqda.

2025-yilda O'zbekistonga tashrif buyurgan 11 milliondan ortiq xorijlik sayyoh orasida Qirg'iziston (3,3 million), Qozog'iston (2,7 million) va Tojikiston (2,7 million) kabi qo'shni davlatlar fuqarolari ulushi salmoqli ekanini ko'rish mumkin.

Markaziy Osiyo — yagona turizm obyekti. Agar Yevropa mintaqasidagi kabi o'ziga xos tizim yo'lga qo'yilib, Markaziy Osiyo davlatlari xorijiy sayyohlar uchun yagona turizm obyekti sifatida turli xizmatlar va turpaketlarni taklif etsa hamda mintaqadagi turistik manzillar umumiy tarzda reklama (PR) qilinsa, sayyohlar oqimi keskin o'tirishi shubhasiz. Qolaversa, ayrim o'rinalarda mintaqamizning Yevropa qit'asidan ham afzal jihatlari mavjud.

Birinchiidan, O'zbekiston, Qirg'iziston va Qozog'iston, Tojikiston, Turkmanistonda turizmning barcha tarmoqlarini uchratish mumkin. Masalan, Qozog'istonda tog'-kurort va qishki turizm salohiyati yuqori bo'lsa, O'zbekiston betakror tarixiy manzillari va ziyorat turizmi bilan ajralib turadi. Qirg'izistonda esa tabiat va etnoturizm yaqqol ko'zga tashlanadi. Ya'ni Markaziy Osiyo davlatlari shunday geografik mintaqada joylashganki, bu yerda turizmning yuzlab turlarini tashkil etish imkonini bor. Jumladan, Amudaryo va Sirdaryo bo'yilarida, shuningdek, Kaspий dengizida suv turizmini, tog'li hududlarda tog'-kurort turizmini, Qizilqumda cho'l va ekstremal turizmini, Orolbo'yida ekoturizm va geoturizmi, Issiqko'l va Aydarko'l bo'yilarida ko'l turizmini rivojlantirish mumkin. Shuningdek, tarixiy-madaniy joylarda ziyorat turizmi, etno-gastronomik turizm hamda yirik shaharlarda turizmning zamonaviy shakllarini taraqqiy ettirish imkoniyati katta. Yevropa qit'asida har vaqtning o'zida shuncha xilma-xil turistik yo'nalishlarga ega bo'lgan 3 ta mamlakatni topish amrimahol. Birinchiidan, 29 ta davlatni to'liq sayohat qilib chiqishga esa hammaning ham vaqti yoki imkonini yetmaydi.

Ikkinchiidan, Yevropa mamlakatlariga sayohat qilish imkoniyatini beruvchi Shengen vizasini olish talablari bunda kuchayib bormoqda. Markaziy Osiyoda esa bodura murakkabliklar kuzatilmaydi.

Uchinchiidan, qimmat Yevropa mamlakatlariga sayohat qilishga hammaning ham qurbi yetavermaydi. Bu borada Markaziy Osiyo ancha hamyonbop va munosib muqobil (ekvivalent) vazifasini o'tay oladi. O'zbekiston turizm salohiyatini yil sayin o'ttirib, dunyoda imijini yuksaltirib borayotgan o'lkadir. Jahon hamjamiyati esa allaqachon Markaziy Osiyoni katta bir kuch, ajralmas geosiyosiy hudud sifatida ko'ra boshladi. Bu holat kelgusida mintaqaning xuddi Yevropa singari turli sohalarda ulkan va yagona geosiyosiy obyekti sifatida o'zini namoyon etishini taxmin qilishga asos bo'ladi. Agar Markaziy Osiyo davlatlari turizm sohasida Yevropaniki kabi jozibador tizim yaratga olsa, jahon turizm maydonida mustahkam o'rni ega bo'ladi. Bunday sharoitda O'zbekiston mintaqaning asosiy turizm markaziga aylanishi shubhasiz.

Sanjar ESHMURODOV,
“Yangi O'zbekiston” muxbiri

“Yangi O'zbekiston” va “Правда Востока” gazetalarini tahririyati” DM

Bosh muharrir:

Salim DONIYOROV

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqdir qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahilaladi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatlari chop etilishiga “SHARQ” NMAK mas'ul.
Bosmaxona telefoni: (71) 233-11-07.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro'yxatga olingan.
Nashr indeksi — 236. Buyurtma G-746.
29609 nusxada bosildi.
Hajmi — 3 taboq. Ofset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A2.
Bahosi kelishilgan narxda.

Navbatchi muharrir: Jonibek Alijonov
Musahhih: Sherzod Mahmudov
Dizayner: Zafar Ro'ziyev

Manzillimiz:
100060, Toshkent shahri,
Shahrisabz ko'chasi, 85-uy

Qabulxona: (71) 233-56-33
E'lonlar bo'limi: (71) 233-70-98

E-mail: info@yuz.uz
Web-sayt: www.yuz.uz: (71) 233-47-05

Devonxona va ishonch telefoni:
(71) 233-56-60

“SHARQ” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasida chop etildi.
Bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Buyuk Turon ko'chasi, 41-uy.